XALQARO REYTINGLARNI TASHQI SIYOSATDAGI O'RNI

Baratova Sabrina Sobirovna
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
Xalqaro munosabatlar fakulteti, 3-bosqich talabasi
sabrinasobirovna24042006@gmail.com
Ilmiy rahbar:
Abdurasulov Javlon Abdurayimovich
Research fellow University of World Economy and Diplomacy, Uzbekistan
https://orcid.org/0009-0006-1553-147
jabdurasulov@uwed.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalqaro reytinglarni o'rni, shakllanish tarixi va rivojlanish bosqichlari chuqur tahlil etiladi. Shu bilan birgalikda, ularning davlatlar o'rtasidagi munosabatlari, xalqaro darajadagi o'rni, iqtisodiy hamkorligi va davlat iqtisodiyotiga ta'siri yoritiladi. Maqola davomida Janubiy Koreya va Yaponiya xalqaro reytingdagi tajribasi asosida misollar ko'rib chiqiladi. Maqolaning yakuniy xulosa qismida xalqaro reytinglardan samarali foydalanish hamda tajriba orttirish masalalarida taklif va tavsiyalar berib o'tiladi.

Kalit so'zlar: xalqaro reytinglar va indekslar, yumshoq kuch (soft power), tashqi siyosat strategiyasi, ta'limni xalqarolashtirish, reyting metodologiyasi, Inson taraqqiyoti indeksi (HDI), QS va THE reytinglari, "Study Korea 300K" , Yaponiya ta'lim islohotlari, qaram bo'lish

Аннотация. В данной статье подробно анализируются роль международных рейтингов, история их формирования и основные этапы развития. Наряду с этим рассматриваются их влияние на отношения между государствами, роль на международной арене, экономическое сотрудничество и воздействие на национальную экономику. В статье также приводятся

примеры на основе опыта Южной Кореи и Японии в сфере международных рейтингов. В заключительной части предлагаются рекомендации по эффективному использованию международных рейтингов и изучению накопленного опыта.

Ключевые слова: международные рейтинги и индексы, мягкая сила (soft power), стратегия внешней политики, интернационализация образования, методология рейтингов, Индекс человеческого развития (HDI), рейтинги QS и THE, «Study Korea 300K», образовательные реформы Японии, зависимость.

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the role of international rankings, their historical formation, and the main stages of their development. It also examines their influence on relations between states, their role in the international arena, economic cooperation, and their impact on national economies. The article presents examples based on the experiences of South Korea and Japan in the field of international rankings. The concluding section offers recommendations on the effective use of international rankings and the benefits of learning from international experience.

Keywords: international rankings and indices, soft power, foreign policy strategy, internationalization of education, ranking methodology, Human Development Index (HDI), QS and THE rankings, Study Korea 300K, Japanese education reforms, dependence**.**

Hozirgi globallashuv davrida davlatlarning o’zaro baholanib, solishtirilishi zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Globalizm kuchayishi oqibatida, ya’ni axborot texnologiylari rivojlangani va ularning o’rni sezilarli darajada kuchayganligi sababli davlatlar o’rtasidagi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy salohiyatni qandaydir umumiy ko’rsatkichlar orqali baholashga bo’lgan talab ortib bormoqda. Mana shunday talablar ortgani sababli hayotimizda xalqaro reyting va indeks degan tushunchalar yuzaga kelib, ularning o’rni asta-sekin kuchayib bormoqda. Xalqaro reytinglar deganda davlatlarning qandaydir

salohiyatlarini, institutlarini yoki boshqa subyektlarini oldindan belgilangan mezonlar orqali taqqoslash, ularning o'rnini belgilaydigan mexanizm tushuniladi. Irlandiyalik tadqiqotchi Ellen Hazelkornning fikricha, global universitet reytinglari oddiy taqqoslash bo'libgina qolmay, oliy ta'lim sohasidagi raqobat va davlat siyosatiga ta'siri o'tadigan instrumentga aylangan.[1] Ularni shunchaki statistik ko'rsatkichlar deya olmaymiz, chunki ular xalqaro obro'ni shakllantiruvchi, investorlar va donorlar fikri va qaroriga ta'sir o'tkazuvchi omil hamdir. Shuningdek, ular davlat siyosatini yo'naltirishda ham katta o'rin tutadi. Bu jarayonning institutsionallashuvini 1990-yilda BMT Taraqqiyot dasturi tomonidan Inson taraqqiyoti indeksining (HDI) joriy etilishi,[2] 2003–2004-yillarda global universitet reytinglarining (ARWU, QS, THE) chiqa boshlashi, keyinchalik esa Soft Power, Global raqobatbardoshlik, korrupsiya idroki va innovatsiya indekslarining keng tarqalishi orqali ham ko'rishimiz mumkin. Bugungi kunda global boshqaruvning "yumshoq" mexanizmlari deb xalqaro indekslarni ayta olamiz. Hozirda xalqaro reytinglar o'zimiz sezmayotgan bo'lsakda, hayotimizda sezilarli darajada ahamiyat kasb etib, davlatlar o'rtasidagi raqobarni yangi pog'onaga olib chiqib, juda ham kuchayturib yuborgan. Reytinglar yuqori o'rinlardagi mamlakatlarni soft powerini mustahkamlashga, past o'rindagilarini esa yangi islohotlar qilishga undaydigan kuchdir. Misol qilib oladigan bo'lsak, Yaponiya va Jabubiy Koreya kabi mamlakatlarda tizimli siyosat orqali reytinglarda barqaror o'sishga erishish mumkunligini ko'rish mumkin. Asosan Koreyaning "Hallyu" strategiyasi asosidagi muvaffaqiyatlari[3] va Yaponiyaning yuqori o'rinlari bunga yaqqol isbot bo'la oladi. Shu sababli, mazkur maqolada xalqaro reytinglarning mohiyati, ahamiyati, tarixiy

[1] The evolution https://evolllution.com/author/ellen-hazelkorn
[2] Inson rivojlanishi indeksi (HDI) – BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) https://hdr.undp.org/data-center/human-development-index
[3] Корейская волна и мягкая сила. Стратегия развития и распространения https://cyberleninka.ru/article/n/koreyskaya-volna-i-myagkaya-sila-strategiya-razvitiya-i-rasprostraneniya

ildizlari, yani paydo bo'lishi va rivojlanishi, xalqaro munosabatlardagi o'rni, davlatlar ichki va tashqi siyosatidagi o'rni, hamda ularning davlat siyosatidagi o'rni va istiqbollari ko'rib chiqiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi reytinglarni shunchaki baholash vositasi sifatida emas, balki global boshqaruv va milliy strategiyaning muhim qismi va unga ta'siri sifatida tahlil qilishdir.

Qisqa qilib tushuntiradigan bo'lsak, xalqaro reytinglar – bu davlatlar, oliy ta'lim muassasalari, kompaniyalar, sport vakillari yoki guruhlari, va boshqa bir subyektlarni oldindan belgilangan mezonlar orqali, qandaydir bir ma'noda taqqoslab, ularga raqamli o'rin bera oladigan tizimli ro'yxatlar to'plami. Bunday mezonlarga asosan sport natijalari, ilmiy tadqiqotlar sifati va hajmi, ta'lim darajasi, ekologik holati, innovatsiya, turmush darajasi, boshqaruv samaradorligi va eng asosiysi iqtisodiy ko'rsatkichlar kiradi. Xo'sh reytinglar bizga nima uchun kerak? Reytinglar davlatlarning (ishtirokchilarning) qiyosiy mavqeini aniqlaydi, yutuqlarini ko'rsatib, zaif tomonlarini ham ochib beradi. Ular asosan xalqaro tashkilotlar, ilmiy muassasalar va mustaqil tadqiqot markazlari tomonidan tuziladi. Endi reytinglarning yuzaga kelishi haqida to'xtaladigan bo'lsak, ular birdaniga qandaydir ma'noda vujudga kelmagan, aksincha sekin-astalik bilan rivojlana boshlashgan. Eng avvalo, XIX asr oxirida ya'ni 1870-yillarda AQSHda Ta'lim byurosi universitetlarni guruhlarga ajratib chiqqan, ammo bu hali to'liq reyting emas, shunchaki tasniflash edi.[4] Keyinchalik esa "American Men of Science" asosida Jeyms Makkin Kattel 1910-yilda universitetlarni ilmiy kuchiga qarab solishtira boshlagan, aniqroq qilib aytadigan bo'lsam u qaysi universitetda ko'proq taniqli tadqiqotchilar ishlashini hisoblab chiqqan.[5] Yana shunday, keng tarqalgan usullardan birini olim Raymond Haughes 1925-yilda professorlarning obro'si va

[4] ERIC (официальная база данных Министерства образования США): https://eric.ed.gov/?id=ED616837

[5] Cattell, J. M. (1910). A Further Statistical Study of American Men of Science. *Science*, 32. : https://archive.org/details/statisticalstudy00cattrich

bilimiga qarab reyting tuzib chiqishi bilan ommaga olib chiqqan.[6] So'ngra Buyuk Britaniyada ham 1962-yil Oksford kollejlari uchun Norrington Table nashr etilgan,[7] unda talabalarning imtihon natijalari asosida kollejlarga o'rin belgila boshlangan. Eng so'ngida universitetlarning ommaviy reytinglar ro'yxati 1983-yilda US News & World Report jurnalida chop etilib, e'lon qilingan, umuman olganda bu nashr oddiy odamlar, talabalar va ularning ota-onalari uchun edi.[8] Aynan shu paytdan boshlab, reytinglar hayotimizda muhim o'rin egallab, kengroq qo'llanila boshlandi va ommaviy axborot vositalarida muntazam chiqa boshladi. Milliy reytinglar esa XX asr oxirlariga kelib vujudga kela boshladi. Haqiqiy global reytinglarga keladigan bo'lsak, ular XXI asr boshida shakllana boshlandi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsam birinchi jahon reytingi 2003-yil iyun oyida Shanxay Jiatong universiteti tomonidan Academic Ranking of World Universities degan nom bilan chiqarilgan.[9] Bu reyting aslida Xitoy universitetlarining dunyodagi mavqe'ini aniqlash maqsadida joriy etilgandi. U o'z ichiga oltita asosiy ko'rsatkichni oladi, bular: ishchi xodimlar va bitiruvchilar orasida Fields medali hamda Nobel mukofoti sohiblari soni, yuqori iqtibosli tadqiqotchilar soni, Web of science indekslardagi nashrlar, Science va Nature jurnallaridagi maqolalar va universitet hajmiga ko'ra samaradorlik. Shunga ko'ra 2009-yildan beri Shanghai Ranking Consultancy har yili 2500 ga yaqin

[6] Hughes, R. M. (1925). *A Study of the Graduate Schools of America*. Oxford, OH: Miami University.
https://www.irwincollier.com/economics-graduate-programs-ranked-in-1925/

[7] Oxford to publish official league table for colleges
https://www.timeshighereducation.com/news/oxford-to-publish-official-league-table-for-colleges/192362.article

[8] Infographic: 30 Editions of the U.S. News Best Colleges Rankings
https://www.usnews.com/education/best-colleges/articles/2014/09/09/infographic-30-editions-of-the-us-news-best-colleges-rankings

[9] Academic Ranking of World Universities (ARWU)
https://library.fa.ru/page.asp?id=148

universitetni baholab, eng yaxshi 1000 tasini e'lon qiladi.[10] Bu reytingning asosiy g'oyasi shundaki, u o'z baholash mezonlarida so'rovnomalarga tayanib emas, balki obyektiv ma'lumotlarga qarab ish yuritadi. Keyingi yillarda esa turli metodologiyalardan foydalanadigan tizimlar - Webometrics, Leiden, SCImago paydo bo'ldi, ular asosan tadqiqot natijalari va xalqaro ochiqlikka e'tibor qaratadi. Mamlakatlar tomonidan qaraydigan bo'lsak, ular uchun eng mashhur indekslardan biri bu – Inson rivojlanish indeksi bo'lib, u BMT Taraqqiyot dasturi tomonidan 1990-yilda joriy etilgan bo'lib, u umr ko'rish yoshi, ta'lim sifati hamda aholi jon boshiga daromadni birlashtiradi.[11] Bu indeks pokistonlik iqtisodchi Mahbub ul Haq tomonidan, Amartya Sen yordami bilan dunyoga taqdim etilgan.[12] Xalqaro reytinglarni aslida kimlar tuzadi? Odatda, xalqaro reytinglarni mustaqil xalqaro reyting tashkilotlari, tahliliy tashkilotlar va ilmiy nashriyotlar ishlab chiqiladi. Ularning vazifasi, universitetlardan ma'lumotlar bazalaridan foydalanadilar va akademik ish beruvchilar o'rtasida so'rovnoma o'tkaziladi. Shular bilan bir qatorda, xalqaro munosabatlardagi reytinglar tizimini davlat ichki siyosatiga ta'sirini tahlil qiladigan bo'lsak, ular davlat ichki siyosatiga chuqur ta'sir ko'rsatadi.[13] Reytinglar xalqaro munosabatlarda "soft power" ya'ni yumshoq kuch sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu jarayonda reytingda yuqori darajaga erishgan mamalakatlar, o'zlarining yo'nalishlarini "to'g'ri" yo'l deb biladilar, pastki o'rindan joy olgan mamlakatlarga esa o'z yo'nalishlarini o'zgartishga majburlaydilar, bu qanchalik bilinmasada, aslida chuqur bosim hisoblanadi.

[10] ARWU (Shanghai Ranking) – https://www.shanghairanking.com/
[11] United Nations Development Programme (UNDP). Human Development Index (HDI). https://hdr.undp.org

[12] Human Development Index (HDI) https://www.ebsco.com/research-starters/education/human-development-index-hdi/

[13] Times Higher Education (THE) World University Rankings https://www.timeshighereducation.com/world-university-rankings

Hozirgi biz yashayotgan globallashuv asrida xalqaro reytinglar davlatlar o'rtasida muhim ayamiyatga ega. Ularni faqatgina iqtisod yoki ta'lim sohalarida kerak deb ayta olmaymiz, chunki ular nafaqat bu sohalarda, balki soft power, ya'ni yumshoq kuch sifatida ham xizmat qila oladi. Davlatlar orasidagi yuqori ko'rsatkichalar mamlakatning xalqaro obro'sini oshirib, xorijiy investorlar, talabalar, olimlar va boshqa kerakli kasb vakillarini jalb qilishga yordam beradi. Reytinglar davlatlar o'rtasidagi raqobatbardoshlikni kuchaytiradi desam mubolag'a bo'lmaydi. Misol qilib oladigan bo'lsak, universitetlar reytingida yuqori o'rin egallagan davlatlarning o'quv dargohlari o'zlariga millionlab talabalarni jalb qiladi. Bu esa davlatning, albatta, iqtisodiyotini, turizmini va ta'lim darajasini oshishiga juda katta sharoit yaratib beradi, aniqroq qilib aytadigan bo'lsam reytinglar orqali davlatlar o'z tilini, qadriyatlarini va madaniyatini ommalashtirib boradi. Shu sababli reytinglar diplomatik muloqotda ham keng ishlatiladi va ba'zi hollarda hukumat egalari o'z davlatlarining reytinglarini xorijiy hamkorlari bilan uchrashuvlarda dalil sifatida ko'rsatishadi. Bulardan tashqari, reytinglar ilmiy hamkorlikni qo'llab quvvatlaydi va rag'batlantiradi. Buning oqibatida esa yuqori o'rindagi universitetlar bir biri bilan hamkorlini boshlab yuborishadi. Bu esa qo'shma tadqiqotlarni yo'lga qo'yishga bir turtki bo'ladi va professorlar almashinuvi, talabalar mobilligini kuchaytirishda keng imkoniyatlarni yaratib beradi. O'z o'rnida bunday ishlar ham xalqaro munosabatlar tizimini mustahkamlashda qulay bir vosita sifatida qo'llaniladi. Tanganing ikki tomoni bo'lgani kabi, reytinglarning ham faqatgina ijobiy emas, balki salbiy tomonlari ham mavjud. Masalan ba'zi mamlakatlar yuqori o'rin egallash maqsadida sun'iy choralarga ham qo'l urishi mumkin. Bu esa o'z navbatida haqiqiy rivojlanish o'rniga faqat ko'rsatkichlarning yaxshilanishiga olib keladi. Shunday bo'lsada, hozirgi kunda reytinglar xalqaro maydonda muhim axborot manbai va raqobatbardoshlikni oshiradigan bir vosita sifatida qolmoqda. Bilamizki, xalqaro reytinglar ko'plab mamlakatlarda davlat siyosatiga bevosita ta'sir o'tkazadi, ya'ni hukumat reyting natijalariga qarab innovatsiya, ta'lim va iqtisodiy

siyosatini o'zgartiradi. Undan tashqari davlatlar o'zlari bilmaagn holatda tashqi aktorlarga qaram bo'lib qoladi. Ya'ni, hukumatlar reytingda yaxshi pog'onaga ko'tarilish uchun davlatlar byudjetni qayta taqsimlashi kerak, qonunlariga o'zgartirish kiritishi, ijtimoiy sohalarda universitet boshqaruvini isloh qilish, ichki islohotlariga tashqi aralashuvining kuchaytirilishiga majbur qiladi. Ushbu jarayondan so'ng, davlat o'z milliy manfaatlarida ko'ra reytingdan yuqori ko'rsatkichlarga moslashishni ustuvor qilib qo'yadi. Bu jarayon, asosan, Janubiy Koreya va Yaponiya misolida yaqqol ko'rinadi. Janubiy Koreya haqida fikr yuritadigan bo'lsak, ularda davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri - bu universitetlarning xalqaro reytingini oshirish hisoblanadi va qolaversa ular QS va THE reytinglarida[14] yuqori o'rinlarni egallash maqsadida ko'plab maxsus dasturlar ishlab chiqishgan. Bu dasturlarni kuchaytirish maqsadida universitetlarga qo'shimcha moliyalashtirish ajratilib, xalqarolashtirish dasturlari kuchaytirilgan. Bunga yaqqol misol qilib, "Study Korea 300K" dasturini olsak bo'ladi, ular 2027-yilgacha shu dastur orqali xorijiy talabalar oqimini 300 minggacha kuchaytirishni o'zlariga maqsad qilishgan.[15] Shuningdek, Janubiy Koreya hukumati mintaqaviy universitetlarni qo'llab-quvvatlash siyosatini ham yo'lga qo'ygan. Bundan asosiy maqsad shuki, faqatgina Seuldagi bir necha nufuzli universitetlarni emas, balki boshqa hududlardagi oliygohlarni ham reytingga kiritish. Bunday siyosati orqali hukumat ta'lim sifatini oshirish, o'z yoshlarini chet elga o'qish uchun ketishini kamaytirish, hamda global raqobatbardoshligini mustahkamlashini ko'zda tutmoqda.[16] Janubiy Koreyadan o'laroq, Yaponiyada vaziyat biroz boshqacha. Oxirgi paytlarda yapon universitetlarinibg reytinglardagi o'rni pasayib ketayotligini ko'rishimiz mumkin. Albatta, bu holat davlat boshqaruvchilarini chuqur o'yga soldi

[14] QS World University Rankings – https://www.topuniversities.com/
[15] Ministry of Education https://english.moe.go.kr/boardCnts/viewRenewal.do?boardID=265&boardSeq=96185&lev=0&searchType=null&statusYN=W&page=1&s=english&m=0201&opType=N
[16] Janubiy Koreya Ta'lim vazirligi va xalqarolashtirish dasturlari haqida (Study in Korea): https://www.studyinkorea.go.kr/

va oqibatda 2023-yil maxsus qonun qabul qilinishiga olib keldi. Unga ko'ra, oltita yetakchi oliygohlarda tashqi ekspertlar ishtirokidagi boshqaruv kengashlari tashkil etildi. Bu kengashning asosiy vazifasi shundaki, u universitet rahbariyatning ishini o'z nazoratiga olib, strategik qarorlar qabul qilishda ishtirok etishadi. Bundan ko'zlangan maqsad, avvalo: tadqiqot sifatini oshirish, keyin esa xalqarolashtirishni kuchaytirib, reytinglardagi o'rinni tiklash. Shu bilan bir qatorda Yaponiya hukumati ilmiy tadqiqotlarga ham e'tibor qaratib, ularga qo'shimcha mablag' ajratib, xorijiy olimlarni jalb qilish va ingliz tilidagi dasturlarni kengaytirsh bilan bog'liq chora-tadbirlarni yo'lga qo'ymoqda.[17] Har ikkala mamlakatda ham reytinglar eng birinchi davlat byudjet taqsimotiga, keyin esa xalqarolashtirish strategiyasiga va ta'lim islohotlariga ta'sir qilmoqda. Xullas, reytinglardagi o'rinlar davlatlar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, siyosatni ishlab chiqishda asos vazifasini o'tamoqda. Xalqaro reytinglarning istiqbollari haqida to'xtaladigan bo'lsak, aytish joizki, ularning kelajagi bir necha yo'nalishlarda rivojlanishi kutilmoqda. Birinchidan, metodologiyalar yanada shaffof va ko'p o'lchovli bo'lishi ko'zda tutilmoqda. Hozirgi paytda ko'plab reyting natijalari faqat tadqiqot natijalariga tayanayotgan bo'lsa, yaqin kelajakda ular ta'lim sifati, ish bilan bandligi, barqarorlik, ijtimoiy ta'sir va inklyuzivlik kabi ko'rsatkichlarga ham e'tibor qarata boshlaydi. Ikkinchidan, sun'iy intellekt va big data kabi zamonaviy texnologiyalar ham reyting tuzish jarayonlarini o'zgartirishi mumkin. Kelajakda katta ma'lumotlar bazasidan foydalanish orqali yanayam aniqroq va real vaqtda yangilanib turadigan reytinglar ro'yxati paydo bo'lishi ham mumkin. Bu ham o'z navbatida subyektivlikni kamaytirishga yordam beradi. Uchinchidan, mintaqaviy va maxsus reytinglar soni ko'payib, global reytinglar bilan birga Osiyo, Afrika hamda Lotin Amerikasi uchun ham alohida reytinglar shakllana boshlaydi. Shu bilan bir qatorda, meninf fikrimcha har bir soha vakillari uchun ham alohida reytinglar joriy etiladi. Bu esa o'z navbatida

[17] Yaponiya oliy ta'lim islohotlari va reytinglarga oid ma'lumotlar (MEXT – Yaponiya Ta'lim, madaniyat, sport, fan va texnologiya vazirligi): https://www.mext.go.jp/

mahalliy sharoitlarni yaxshiroq hisobga olishga ko'maklashadi. To'rtinchidan, davlatlar orasida reyting natijalarini strategik rejalashtirish yanada ommalashadi. Davlatlar nafaqat reytingda yuqori o'rinlarga ega bo'lishni, balki haqiqatdan ham sifatni oshirishni o'zlariga maqsad qilib qo'yishadi. Bu esa, albatta, uzoq muddatli islohotlarning ko'payishiga olib keladi. Shu bilab birga, reytinglar tanqidlarga ham uchrashadi, buning sababi esa ba'zi ekspertlarning reytinglarning cheklanganligini va barcha jihatlarni qamrab ololmayotgablini ta'kidlashida bo'ladi. Shu bois reytinglarni o'rnini bosadigan boshqa boshqa baholash tizimlari ham joriy etilishi kutilmoqda. Umuman olganda, yaqin kelajakda xalqaro reytinglar o'z o'rnini yo'qotmagan holda, muhim vosita sifatida qolaveradi, ammo yildan yilga ularning shakli va mazmuni o'zgarib boradi.

Xulosa

Umumiy xulosa qilib aytganda va yuqoridagi tadqiqotni chuqur tahlil qilgan holda, bugungi globallashuv davrida xalqaro reytinglar davlatlar va universitetlarning o'rnini baholashda muhim o'rin tutadigan vosita hisoblanadi.Ular XXI asr oxirlariga kelib, milliy miqyosda shakllanib, undan keyin 2003-2004-yillar oralig'ida global tizimga aylana boshlagan. Hozirgi paytda keng qo'llaniladigan reytinglar to'plamiga ARWU, QS, THE, HDI va FIFA kabilar kiradi. Xalqaro reytinglarning yana bir asosiy maqsadi bir soft powerni takomillashtirish hamdir. Chunki ular orqali davlatlar o'z obro'sini oshirib, investorlar va talabalarni jalb qiladi. Ular davlar siyosatida ham o'z o'rnini ko'rsatmay qo'maydi. Masalan, Janubiy Koreya reyting natijalariga qarab xalqarolashtirish dasturlarini kuchaytira boshlagan, Yaponiya esa boshqaruv bilan bog'liq ko'plab islohotlarni amalga oshirgan. Bu misollar shuni ko'rsatib beradiki, endilikda xalqaro reytinglar shunchaki oddiy baxolash vositasi emas, balki davlatlarning tashqi siyosiy strategiyasini, shakllantiruvchi yoritib beruvchi va shu bilan bir qatorda ichki islohotlarni rag'batlantiruvchi muhim mexanizmdir.Yaponiya reytingdagi pasayishni institutsional islohotlar uchun turtki sifatia ishlatayotgan bir paytda,

Janubiy Koreya reytinglarni soft powerning samarali instrumenti sifatida qo'llab, xorijiy talabalar, investorlar va ijobiy imidjni jalb qilishga erishmoqda. Bu esa faqatgina raqobatbardoshlikni oshiribgina qolmay, davlatlarning uzoq muddatli rivojlanish yo'llarini belgilashi mumkinligini ham ko'rsatadi. Mening fikrimcha, kelajakda reytinglarning o'rni yanada mustahlamlanib, rivojlanib, yanayam shaffof va ko'p o'lchovli bo'ladi, hamda sun'iy intellektdan foydalanish amalga oshirila boshlanadi. Shu bilan birga, reytinglarning salbiy oqibatlarini ham inobatga olish zarur, ya'ni ba'zi mamlakatlar haqiqiy sifat o'rniga faqat raqamlarni yaxshilashga e'tibor qaratib, "reytingga qaramlik" holatiga tushib qolishi mumkin. Bu esa milliy manfaatlar, ta'limning haqiqiy rivoji va mustaqil siyosiy qarorlar qabul qilish imkoniyatini cheklashi mumkin. Shu sababli, reytinglardan foydalanishda tanqidiy yondashuv, milliy ustuvorliklarni saqlab qolish va ularni faqat vosita sifatida qo'llash muhim ahamiyatga ega. Tavsiya etiladi: Universitetlarda tadqiqot salohiyatini oshirish, xalqaro nashrlarni rag'batlantirish va professor-o'qituvchilar malakasini yaxshilash orqali reyting ko'rsatkichlarini haqiqiy ilmiy natijalar bilan bog'lash; Reyting metodologiyalarini milliy sharoit, iqtisodiy imkoniyatlar va strategik ustuvorliklarga moslashtirish, ularni ko'r-ko'rona nusxa ko'chirishdan voz kechish; Davlat siyosatida reyting natijalarini mustaqil maqsad emas, balki sifatli islohotlarning natijasi sifatida ko'rish va ularga mos uzoq muddatli strategiyalarni ishlab chiqish; Soft power, ta'lim xalqarolashtirish va tashqi siyosatni bir-biriga uyg'unlashtirish orqali reytinglardan diplomatik, iqtisodiy va madaniy foyda olish;

Shaffoflik, inklyuzivlik, barqarorlik va ijtimoiy ta'sir kabi yangi mezonlarni hisobga olgan holda milliy baholash tizimlarini rivojlantirish hamda xalqaro reytinglarga tanqidiy yondashuvni shakllantirish. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, xalaqro reytinglardan to'g'ri foydalanish davlatlarning global raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. The evolution https://evolllution.com/author/ellen-hazelkorn

2. Inson rivojlanishi indeksi (HDI) – BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) https://hdr.undp.org/data-center/human-development-index
3. Корейская волна и мягкая сила. Стратегия развития и распространения https://cyberleninka.ru/article/n/koreyskaya-volna-i-myagkaya-sila-strategiya-razvitiya-i-rasprostraneniya
4. ERIC (официальная база данных Министерства образования США): https://eric.ed.gov/?id=ED616837
5. Cattell, J. M. (1910). A Further Statistical Study of American Men of Science. Science, 32.https://archive.org/details/statisticalstudy00cattrich
6. Hughes, R. M. (1925). A Study of the Graduate Schools of America. Oxford, OH: Miami University. https://www.irwincollier.com/economics-graduate-programs-ranked-in-1925/
7. Oxford to publish official league table for colleges https://www.timeshighereducation.com/news/oxford-to-publish-official-league-table-for-colleges/192362.article
8. Infographic: 30 Editions of the U.S. News Best Colleges Rankings https://www.usnews.com/education/best-colleges/articles/2014/09/09/infographic-30-editions-of-the-us-news-best-colleges-rankings
9. Academic Ranking of World Universities (ARWU) https://library.fa.ru/page.asp?id=148
10. ARWU (Shanghai Ranking) – https://www.shanghairanking.com/
11. United Nations Development Programme (UNDP). Human Development Index (HDI). https://hdr.undp.org
12. Human Development Index (HDI) https://www.ebsco.com/research-starters/education/human-development-index-hdi/

13. Times Higher Education (THE) World University Rankings https://www.timeshighereducation.com/world-university-rankings
14. QS World University Rankings – https://www.topuniversities.com/
15. Ministry of Education https://english.moe.go.kr/boardCnts/viewRenewal.do?boardID=265&boardSeq=96185&lev=0&searchType=null&statusYN=W&page=1&s=english&m=0201&opType=N
16. Janubiy Koreya Ta'lim vazirligi va xalqarolashtirish dasturlari haqida (Study in Korea): https://www.studyinkorea.go.kr/
17. Yaponiya oliy ta'lim islohotlari va reytinglarga oid ma'lumotlar (MEXT – Yaponiya Ta'lim, madaniyat, sport, fan va texnologiya vazirligi): https://www.mext.go.jp/
18. ABDURASULOV J. O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MINTAQAVIY TASHQI SIYOSATIDA AFG 'ONISTON VEKTORI //«ACTA NUUz». 2025. T. 1. №. 1.6. C. 40-43.